

DOI: 10.5281/zenodo.15654029

Link: <https://zenodo.org/records/15654029>

DINLARARO MULOQOT – DAVR TALABI

Toshkent davlat texnika universiteti

Olmaliq filiali katta o'qituvchisi

Amanov Adiljon Karimovich

e-pochta: amanovok22@mail.ru

tel: 90 900 12 44

Annotatsiya. Bu maqolada “diniy bag‘rikenglik” va “millatlararo totuvlik” kategoriyalarining mazmun-mohiyati, O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan. Shu munosabat bilan, ginlararo muloqot insonparvarlik, tenglik, adolat, turli madaniyat va diniy urf-odatlariga mansub odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, yaxshi maslahat va kuchli bahs-munozaralar, xalqaro huquq normalariga rioya qilish, vijdon va e‘tiqod erkinligini ta‘minlashga asoslanishi, shuningdek, davlatlar o‘rtasida ishonch muhitini yaratishi lozim. Aynan shu nuqtai nazardan dinlararo muloqot xavfsiz va adolatli dunyo tartibini shakllantirish yo‘lida muhim rol o‘ynashi mumkin.

Kalit so‘zlar: huquqiy, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, milliy-madaniy markazlar, konfessiyalar, inson manfaat, diniy ma‘rifat, qonun oldida tenglik.

Kirish. Zamonaviy dunyoda, globallashtirish sharoitida madaniyatlararo va dinlararo muloqot muammosi ayniqsa keskinlashgan. Bundan tashqari, ekspertlarning kuzatuvlariga ko‘ra, butun dunyoda odamlar o‘zlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishmoqda yoki ayrim milliy guruhlarning huquq va erkinliklariga nisbatan jiddiy cheklovlariga duch kelishmoqda. Etnik kelib chiqishi, e‘tiqodi yoki e‘tiqodsizligiga ko‘ra ta‘qiblar, repressiyalar va kamsitishlar ko‘pchilik uchun kundalik haqiqatga aylanib bormoqda.

Shu munosabat bilan bugungi kunda dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash jahon hamjamiyatining jamoaviy mas‘uliyati hisoblanadi.

Har yili 16-noyabr kuni butun dunyoda Xalqaro bag‘rikenglik kuni nishonlanadi. 1995-yilning shu kuni YuNESKOga a‘zo davlatlar bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasini qabul qildilar. Mazkur hujjatga ko‘ra, bag‘rikenglik siyosiy-huquqiy ehtiyoj, inson huquqlari, plyuralizm, demokratiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash burchidir. Har bir inson o‘z e‘tiqodiga amal qilishi va boshqalar uchun ham xuddi shunday huquqni tan olishi mumkin, bir kishining qarashlarini boshqalarga yuklash mumkin emas.

1996-yilda Bosh Assambleya BMTga a‘zo davlatlarga ushbu kunni har yili nishonlashni va ta‘lim muassasalari va keng jamoatchilikka qaratilgan tegishli tadbirlar bilan nishonlashni taklif qildi.

BMT, o‘z navbatida, xalqaro hamjamiyatni, agar kerak bo‘lsa, jamiyatlarda barcha guruhlar va shaxslar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash uchun davlat siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirishga chaqirdi.

O‘zbekiston Respublikasi ham mamlakatda yashovchi turli millat vakillari va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni chuqurlashtirish orqali bag‘rikenglikni ta‘minlash va mustahkamlashga qat‘iy intilishini bildiradi. Bu tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini tashkil etib, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy

kelib chiqishidan qat'i nazar, inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan milliy me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan.

Bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunda ko'pmillatli jamiyatimiz fuqarolari ongida haqiqiy vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish bu sohadagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Millatlararo do'stlik va hamkorlik yo'li bilan madaniy, ma'rifiy va ma'naviy yuksalish sari shahdam qadamlar tashlandi.

Yurtimizda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirish, millatlarning har tomonlama ravnaq topishi, ularning milliy qadriyatlarini saqlab qolish, urf-odatlar va an'analarning rivojlanishiga barcha imkoniyat hamda shart-sharoitlar yaratib berilganligini mamnuniyat bilan qayd etish lozim.

Mustaqillik yillarida yurtimiz, ko'pmillatli xalqimiz erishgan vatanimizdagi barqaror tinchlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi yuksak natijalar zahirida ma'naviyat sohasida, din va diniy tashkilotlarga munosabat borasida olib borilgan oqilona siyosat yotadi. Shu bilan birgalikda mana shu siyosatdan bir lahza og'ishmaslik talab etilishini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagicha ta'riflaganlar “Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz. Shu maqsadda mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'riladi” [1].

2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni imzoladi. Unda beshinchi ustuvor yo'nalish **“Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”ning 74-maqsadi: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash** deb nomlanib, unda:

Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;

Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash;

Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish;

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish;

Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan [4].

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda din hamisha ijtimoiy madaniyatning ajralmas va muhim qismi sifatida talqin qilinib, xalq ma'naviyatini yuksaltirishga ko'maklashuvchi muhim omildir. Umuman, e'tiqod erkinligi gumanistik madaniyatning eng buyuk yutug'i sifatida, O'zbekiston misolida to'liq aksini topgan.

Davlatimiz rahbarining ma'rifiy islomni tiklash va targ'ib etish, bebaho va benazir ilmiy asarlar yaratgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosini o'rganish

hamda ommalashtirishga doir amaliy tashabbuslari turli qatlam vakillari va dunyo jamoatchiligi tomonidan qizg'in kutib olinmoqda. Bu esa respublikamiz ma'rifiy islom g'oyasini targ'ib qilish bo'yicha dunyoga ibrat bo'lguvchi maqomni saqlab kelayotganini isbotlaydi.

Bu jarayon O'zbekistonda muqaddas islom diniga yuksak e'tibor va ehtiromning amaliy ifodasidir. Dinga odil munosabat esa Yangi O'zbekistonni barpo etishdek xayrli strategiyaning uzviy, chambarchas bo'lagidir.

Sohibqiron Amir Temur o'z "Tuzuk"larida: "Mening qo'l ostimdagi qirq aymoq hammasini teng ko'rdim. Barlosni tatardan, tatarni naymandan, naymani yuzdan ustun qo'ymadim. Barcha muvaffaqiyatlarim garovi shundadir" [9] deb yozgan.

Natijalar. Diniy omil butun dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda zamonaviy jamiyatlar hayotida katta rol o'ynamoqda. Amerikalik din sotsiologi P.Bergerning fikricha, "dunyo har doimgidek, ba'zi joylarda esa har qachongidan ham qattiqroq diniy" bo'lib qolmoqda [10]. Olimning ta'kidlashicha, zamonaviylik dunyoviylikni emas, balki plyuralizmni, ya'ni bir jamiyatda turli qadriyatlar tizimi va dunyoqarash tashuvchilarining mavjudligi va yaqin o'zaro ta'sirini keltirib chiqardi. Shu nuqtai nazardan, dinlararo muloqot deb ataladigan turli dinlar izdoshlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq muammolar majmuasini tushunish vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi.

Dinlararo muloqot tushunchasi ko'pincha siyosiy, jamoat va din arboblari, olimlar va ekspertlarning chiqishlarida, ommaviy axborot vositalarida uchrasa-da, ekspertlar bu atamaning ta'rifini shakllantirishda qiynalmoqda. Tadqiqotchi T.Merrigan dinlararo muloqotni hamma foydalanadigan atamalarning maxsus sinfi sifatida tasniflash mumkin, ammo uning nima ekanligini hech kim tushuntirib bera olmaydi, deb hisoblaydi [11]. Shu nuqtai nazardan u shunday yozadi: "Muloqot, ehtimol, globallashuv va plyuralizm tomonidan dinlar oldiga qo'yayotgan muammodan kelib chiqadigan leksikadagi eng noaniq atamadir. Ushbu kontseptsiyani talqin qilishga urinayotganda, muloqotning o'ziga xos maqsadlari ... muloqot shartlari, uning jarayonida muhokama qilinishi kerak bo'lgan (yoki undan qochish) mavzular, muloqot muvaffaqiyatini baholash mezonlari kabi o'zaro bog'liq muammolarning butun majmuasi paydo bo'ladi." [11].

Dinlararo muloqot sohasidagi taniqli mutaxassis K.Kornill ta'kidlaganidek, "dinlararo muloqot" atamasi dinlar o'rtasidagi keng ko'lamlı munosabatlarni - mahallada yashovchi oddiy dindorlar o'rtasidagi kundalik aloqalardan tortib, ma'naviyat yetakchilari o'rtasida muayyan masalalar bo'yicha individual va tartibsiz almashinuvlar, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan dinlararo faollikgacha bo'lgan mutaxassislar o'rtasida maxsus tashkil etilgan muhokamalarni to'g'ridan-to'g'ri ifodalash uchun ishlatiladi.

Dinlararo muloqotning har xil turlarini tavsiflash uchun K.Kornill o'zi ishlab chiqqan tasnifdan to'rtta mezon asosida foydalanishni taklif qiladi:

niyat (muloqot uchun motivatsiya nima?);

maqsad (ishtirokchilar o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadilar?);

tamoyillar (qaysi tamoyillar o'zaro ta'sirni belgilaydi?),

shakl (muloqotda kim ishtirok etadi?).

Shakl mezonі doirasida muloqot subyektlarining uchta "darajasini" ajratib ko'rsatish mumkin: 1) institutsional, 2) ekspert/kontseptual 3) pastki daraja [12].

Institutsional darajaga diniy yetakchilar va diniy jamoalarning rasmiy vakillari kiradi. Bu yerda muloqotning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u individual tarzda emas, balki institutsional darajada amalga oshiriladi, ya'ni ishtirokchilar unga aynan o'z diniy tashkilotlari vakillari sifatida kirishadi. Din bu holatda ijtimoiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy institut sifatida qaraladi va muloqot ishtirokchilarining asosiy muammosi bu ta'sirni ijobiy qilishdir.

Dinlararo muloqot fenomeni, dindorlarning bevosita uchrashuvlaridan tashqari, "nazariy jihat"ni ham o'z ichiga oladi: qiyosiy tadqiqotlar, qo'shma bayonotlar, muloqotning turli muammolarini kontseptual tushunish va hokazo. Dinlararo muloqotning kontseptual darajasi turli olimlar va mutaxassislar faoliyati bilan bevosita bog'liq;

Pastki darajadagi dinlararo munosabatlar, yoshlar, din arboblari, dinlararo masalalar bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlari faoliyatiga mos keladi. Qayd etish joizki, dinlararo yig'ilishlarda "to'g'ridan-to'g'ri" nafaqat oddiy dindorlar, balki ruhoniylar va ilmiy jamoatchilik vakillari ham qatnashishi mumkin. Ushbu darajadagi asosiy xususiyat shundaki, institutsional muloqotdan farqli o'laroq, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'zlarining shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib muloqot qiladilar (bu diniy masalalarda bilimni kengaytirish, boshqa dinlarni o'rganish orqali o'z e'tiqodini yaxshiroq tushunish istagi, ba'zi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun boshqa dindagi "fikrdoshlarni" topish istagi va boshqalar bo'lishi mumkin) [12].

Tarixiy va bugungi kun tajribalaridan ma'lumki ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning tarkibiy qismi bo'lgan millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga erishish uning nozik va serqirra jihatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Ming yillar davomida Milliy va diniy bag'rikenglik, ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali "rang-baranglik birligi" tamoyiliga asoslanish o'zbek madaniyati va mentalitetining ajralmas qismiga aylanib ketgan. 130 dan ziyod millat vakillari istiqomat qilayotgan O'zbekiston asrlar mobaynida turli madaniyatlar, milliy an'analar va diniy e'tiqodlar uchrashgan tabarruk zamin bo'lib kelgan.

Konstitutsiyamizning qator moddalarida kafolatlab qo'yilgan teng huquqlilik, fuqarolarimizning demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida birlashlariga keng imkoniyatlar eshigini ochib berilgan. Bu esa o'z navbatida millatlararo va konfessiyalararo munosabatlardagi uyg'unlik xalqlarning ma'naviy boyligi bo'lib, davlatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglikni yo'lga qo'yishda O'zbekiston o'ziga xos boy tajriba orttirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun huquqiy asoslar hamda barcha sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda Adliya vazirligi tomonidan O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 16 konfessiyaga mansub 2200 dan ziyod diniy tashkilot ro'yxatdan o'tgan. Shundan 200 ga yaqini

noislomiy diniy konfessiyalarga qarashli tashkilotlardir. Ular amaldagi Qonunlar asosida mustaqil yuridik shaxs sifatida mamlakat ijtimoiy hayotida qatnashish, diniy adabiyotlar nashr qilish, zarur bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilish huquqlariga egadirlar.

Muhokama. O‘zbekistondagi diniy bag‘rikenglik chuqur tarixiy ildizga va yaqqol zamonaviy amaliy ifodaga ega. Bizning zaminimizda asrlar davomida ba’zi mamlakatlarda bo‘lgani kabi antisemitizm, irqiy va diniy kamsitish hollari hech qachon namoyon bo‘lgan emas. Ming yillar mobaynida bu o‘lkada millatlararo va dinlararo muloqotning yuksak madaniyati shakllangan, insonparvarlik va tolerantlik qat’iy amalda bo‘lgan. Yurtimiz hududida qadimdan turli dinlar va konfessiyalar vakillari tinch-totuv yashagan, zardushtiyalar va buddaviylar, hindiy va yahudiylar, musulmonlar va xristianlar bir-birovlarining e’tiqod va urf-odatlarini hurmat qilgan holda istiqomat qilganlar.

Bunda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati va urf-odatlarini asrab-avaylash bilangina cheklanmasdan, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga, ular e’tiqod qilayotgan dinlarda bag‘rikenglikni mustahkamlashga va bir g‘oya atrofida jiplashishiga erishish tamoyiliga amal qilinmoqda.

Qadimgi Yunon muarrixlari Gerodot, Strabon, Arrian, Kursiy Ruf va boshqalar bu o‘lkada kuchli va jasur, mard va dono odamlar, o‘z yurtiga sadoqat va insoniy bag‘rikenglik tuyg‘usi bilan yashashi to‘g‘risida ma’lumotlar qoldirganlar. Ammo ulardan birortasi diniy yoki etnik negizdagi nizolarni, ksenofobiya (“begonalardan yotsirash”) retsidivlarini qayd etgan emas.

Jahon bo‘ylab jadal kechayotgan globalashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga, shu jumladan dunyoning diniy manzarasiga, jahon dinlarining o‘zaro munosabatiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Uzoqqa mo‘ljallangan, asl maqsadi buzg‘unchilik bo‘lgan geosiyosiy kuchlar eng avvalo jahon dinlariaro ijobiy muloqotga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zaro tushunish nuqtalarini o‘chirish, kelishmovchilik va nizo chiqarish payida bo‘lmoqda. Bunday qabih niyatni amalga oshirish maqsadida ayrim siyosiy doiralar tomonidan islomiy qadriyatlar yovuz kuchlar sifatida soxtalashtirilmogda, buzib talqin qilinmogda. Kundan kunga nufuzi ortib borayotgan bu dinga qarshi bo‘lgan kuchlar terrorizmni ham islom bilan bog‘lab, jahon ahlini chalg‘itish uchun “islomofobiya”, ya’ni islom bilan qo‘rqitishga urinmogda.

Dinlararo bag‘rikenglik va tinch-totuv yashash tamoyillarini barbod qilish uchun ma’naviy tahdidlarning eng xavfli turi – missionerlik va prozelitizm kabi o‘tkir “qurollar” ishga solinmogda, bir xalq, bir millatni imon-e’tiqod jihatidan ikkiga bo‘lib tashlash, ichidan aynitish, fitna qo‘zg‘ash kabi iflos ishlarga milliard-milliard dollarlab sarflanmogda, turli jirkanch usul va vositalar ishga solinmogda.

Xulosa. Jahon dinlariaro munosabatlarni yuksak ma’naviy negizda, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik tamoyillari asosida tashkil etish hozirgi davrning eng muhim, global xarakterga ega bo‘lgan vazifasidir. Bu borada to‘plangan tarixiy tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va xalqaro miqyosda qo‘llash uchun amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish dolzarb nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Barcha dinlarning ezgu g‘oyalari asrlar mobaynida sinalgan qadriyatlari Yer yuzidagi odamlarni axloqiy jihatdan yaqinlashtirishga, ma’naviy jihatdan yuksaltirishga xizmat qilayotgan bir paytda bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun yovuz kuchlar diniy nizolarni keltirib chiqarayotgani, turli din va madaniyat vakillari orasiga nifoq solishga urinayotgani jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgani bejiz emas. Dinlararo nizolarning oldini olish uchun konstruktiv mexanizmlarni ishga solish, shu asnoda dinlararo bag‘rikenglik, konfessiyalararo muloqot borasida to‘plangan tarixiy tajribani o‘rganish, tolerantlik falsafasini umumjahon ijtimoiy hayotining kredosiga aylantirish va umumlashtirish hamda targ‘ib etish o‘ta muhim va dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil, 22 dekabr// https://www.norma.uz/oz/muhim_voqealar/
3. “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi N PF-5046 farmoni. "Xalq so‘zi", 2017-yil 23-may.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-sonli “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumandagi so‘zlagan nutqi. 15.06.2017. Internet manba: [hppt//www.prezident/uz](http://www.prezident/uz)
6. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-4307 03.05.2019
7. Bag‘rikenglik - barqarorlik va taraqqiyot omili. - T.: Toshkent Islom universiteti. 2007. 13-14-6.
8. Tolerantlik tamoyillari Deklarasiyasi. YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. -T.: Adolat. 2004. 92-6.
9. Amir Temur Ko‘ragon. Temur tuzuklari. – T.: “Ijod-PRESS” nashriyoti, 2019. – 160 bet.
10. Berger P. L. Desecularization of the world: a global overview. In: Berger P. L. (ed.). The desecularization of the world: resurgent religion and world politics. Washington: Wm. B. Eerdmans Publishing; 1999. Pp. 1-18.
11. Merrigan T., Friday J. (eds). The Past, Present, and Future of Theologies of Interreligious Dialogue. Oxford, U.K.: Oxford University Press; 2017.
12. Cornille C. (ed.). The Wiley-Blackwell companion to inter-religious dialogue. Chichester: John Wiley & Sons; 2013.